

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

UBAYDULLAYEVA DURDONA RAXMONJON QIZI

SHART KOMPONENTLI GIPOTAKSEMALARNING
LINGVOKOGNITIV VA LINGVOKULTUROLOGIK JIHLTLARI
HAMDA TARJIMA MUAMMOLARI
(ingliz va o‘zbek tillari materiall asosida)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
Philological Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Ubaydullayeva Durdona Raxmonjon qizi

Shart komponentli gipotaksemalarning lingvokognitiv va lingvokulturologik jihatlarini hamda tarjima muammolari (ingliz va o‘zbek tillari materiali asosida).....3

Ubaydullayeva Durdona Rakhmonjon kizi

Linguocognitive and linguoculturological features of hypotaxemes with a conditional component and translation problems (on the material of the English and Uzbek languages).....25

Убайдуллаева Дурдона Рахмонжон кизи

Лингвокогнитивный и лингвокультурологический особенности гипотаксем с условным компонентом и проблемы перевода (на материале английского и узбекского языков).....47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....51

Qo‘shimlar

Appendixes

Приложения.....53

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

UBAYDULLAYEVA DURDONA RAXMONJON QIZI

**SHART KOMPONENTLI GIPOTAKSEMALARNING
LINGVOKOGNITIV VA LINGVOKULTUROLOGIK JIHLTLARI
HAMDA TARJIMA MUAMMOLARI
(ingliz va o‘zbek tillari materiall asosida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.3.PhD/Fil1374 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Farg'ona davlat universiteti veb-sahifasi (www.fdu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Hoshimov G'anijon Mirzaahmedovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Sadiqov Zohid Yaqubjanovich
filologiya fanlari doktori, professor

Raxmonov Ulug'bek Bahodirovich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «24» aprel soat 8⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel.: (99873) 244-57-82; e-mail: info@fdu.uz.)

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (494 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-44-94.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «02» aprel kuni tarqatildi.
(2025-yil «02» aprel dagi 22-raqamli reyestr bayonnomasi).



S.M.Muminov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., professor

M.T.Zokirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol.f.n., professor

A.G.Sabirdinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida so‘nggi o‘n yilliklar ilmiy tadqiqotlarida olimlarning til va tafakkur, til birliklari va ularning ortida yotgan tafakkur tuzilmalarini bir uzvda o‘rganishga qaratilgan qiziqishi tobora ortib bormoqda, bu esa tilning kognitiv jihatlarini o‘rganish bilan bevosita bog‘liqdir. Bu ma’noda kognitiv tilshunoslikning paydo bo‘lishi til tizimi, undagi har bir til birligi va uning serqirra aspektlarini tilning yaratuvchisi va qo‘llovchisi bo‘lgan inson omili bilan uzviy bog‘liqlikda kognitiv nuqtayi nazardan asoslab va izohlab berish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Dunyo tilshunosligida qo‘shma gaplar – politaksemlar, shu jumladan, ularning bir invariant turi bo‘lgan shart komponentli gipotaksemlar (ShKG), murakkab til belgilari sifatida azaldan tadqiqotchilarning e’tiborini o‘ziga tortib kelmoqda. Har qanday gapning, shu jumladan, qo‘shma gapning muhim xususiyati shundaki, uning tuzilishi bevosita tilning statik va dinamik jihatlarini o‘zida aks ettiradi, bu esa kognitiv semantika va sintaksis o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir doirasi va muntazam bog‘liqlik mavjudligidan dalolat beradi. ShKGlarning mohiyati, tuzilishi, semantikasi, ularning tildagi funksiyasi kabi masalalar tadqiqot obyekti sifatida an’anaviy yo‘nalishdagi tilshunoslar tomonidan lingvosentrik tamoyillar asosida muayyan darajada o‘rganilgan bo‘lib, ularni kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganish tadqiqotchilarga qo‘shma gaplar orqali ifodalangan bilim tuzilmalari haqida to‘liq ma’lumot olish imkonini beradi. ShKGlarni kognitiv yondashuv doirasida tahlil qilish ularning tuzilishida mental va til sathlari o‘rtasidagi farqlar, shuningdek, voqelantirilayotgan kognitiv semantikani shakllantirilishida ular o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va bog‘liqlik mexanizmlarini aniqlashni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, ShKGlarni shakllanishining kognitiv asoslarini tizimli o‘rganish, ularning munozarali muammolarini hal qilish, yangi turlarini aniqlash, ularning kundalik muloqotdagi lingvopragmatik va lingvokulturologik xususiyatlarini ochib berish va tadqiqot natijalari asosida amaliyot uchun tavsiyalar ishlab chiqish kabi muhim masalalar alohida dolzarblik kasb etadi.

Hozirgi paytda mustaqil vatanimiz tilshunosligida tilni zamonaviy – ilg‘or an’analar asosida tizimli tadqiq qilish, ayniqsa tadqiqot natijalarini leksikografik, lingvodidaktik va translatologik sohalarga samarali tatbiq etish masalalariga katta e’tibor qaratib kelinmoqda. Binobarin, zamonaviy ingliz va o‘zbek tillarida kommunikativ jihatdan muhim bo‘lgan, shu bois kundalik muloqotda keng qo‘llaniladigan ShKGlarga lingvokognitiv, lingvopragmatik va lingvokulturologik yondashuvga asoslangan tadqiqotlarni amalga oshirish, ularning izomorfik, allomorfik va unikal xususiyatlarini tadqiq etish mamlakatimiz tilshunoslik fani, xususan, tarjimashunoslik fani oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zero, ushbu muammolarning hal qilinishi respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan belgilab berilgan “xorijiy tillarni o‘qitish sohasida “bog‘cha-maktab-oliy ta’lim tashkiloti-korxonasi” tamoyilidagi uzluksiz ta’lim zanjirini joriy etish maqsadida aholining barcha qatlamlariga mos bo‘lgan tilni o‘rganish bo‘yicha uslubiyot va tavsiyalarni ishlab chiqishni muvofiqlashtirish”, shuningdek, “davlat tilidan xorijiy tillarga va xorijiy tillardan davlat tiliga professional tarjima qilish

uslubiyotlarini yaratish hamda ushbu yo‘nalishda mutaxassislarining malakasini oshirishda ko‘maklashish” kabi muhim vazifalarni¹ izchil va samarali amalga oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash haqida”gi PF-5712-sonli farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli, 2018-yil 5-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda faol ishtirok etishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli, 2019-yil 29-oktabrdagi “Fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi PQ-576-sonli qarorlari, 2017-yil 11-avgustdagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ta’lim muassasalarida chet tillarni o‘qitish sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 610-son qarori, 2022-yil 20-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida sintaktik sath birliklari, shu jumladan, qo‘shma gaplar, ularning bir invariant turi bo‘lgan ShKGlarga aloqador bir qator tushunchalar, atamalar shakllangan va ularning tarkibi, sintaktik maqomi va funksional jihatlari yuzasidan bir qator monolingval va polilingval ilmiy tadqiqotlar olib borilgan, jumladan, xorijiy tilshunoslikda M.Geys, A.Robertson, D.Bayber, S.Yoxanson, J.Lich, S.Konrad, E.Finegan, R.Qvirk, S.Grinbaum, I.Uilyam, P.Mayes² kabi inglizshunos olimlar, shuningdek, N.S.Pospelov, V.V.Vinogradov, G.N.Akimova, B.A.Ilyish, V.A.Bogoroditskiy, A.G.Rudnev, A.I.Studneva, L.S.Barxudarov, N.S.Valgina, D.E.Rozental, M.I.Fomina, M.A.Telenkova, I.B.Golub, L.L.Iofik, M.Y.Blox, Y.G.Birenbaum, A.M.Muhin, M.I.Cheremisina, T.A.Kolosova, B.S.Haimovich, B.I.Rogovskaya³ kabi rus tilshunos olimlarining ilmiy tadqiqotlarini misol qilib keltirish mumkin.

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5117-sonli qarori, 19.05.2021-yil

²Geis M.L. Adverbial subordinate clause in English. – M.: Massachusetts Institute of Technology, 1970; Robertson A.T. A Grammar of the Greek New Testament in the Light of Historical Research. – Tennessee: Broadman Press, 1934; Biber D., Johansson S., Leech G., Conrad S., Finegan E. Longman grammar of spoken and written English. – London: Longman, 1999; Quirk R., Grinbaum S. A university grammar of English. – Longman, 2004; William E. Conditional Sentences in the New Testament. Doctoral dissertation, Grace Theology Seminary – Gordon College, 1981; Mayes P. Conditionals and Logic of desirability: An interview with Norioko Akatsuka / Issues in Applied Linguistics, 1994. Vol 5, № 2.

³Поспелов Н.С. О грамматической природе сложного предложения // Вопросы синтаксиса современного русского языка. – М.: Учпедгиз, 1950; Виноградов В.В. Грамматика русского языка. – М.: Изд-во АН, 1954;

O‘zbek tilshunosligida ham ushbu yo‘nalishda A.G‘ulomov, M.Asqarova, G‘.Abdurahmonov, A.Mamajonov, A.Berdialiyev, R.Sayfullayeva, O‘.Yusupov, O‘.Xoshimov, J.Bo‘ronov, G‘.Hoshimov, M.Abduvaliyev, N.Mahmudov, A.Nurmonov, D.Teshaboyev kabi olimlar muhim ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar⁴, ularda qo‘shma gaplarning nazariy asoslari yaratilgan.

Maxsus adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, birinchidan, umuman tilda, xususan, muayyan tillarda ShKGlarning struktural-semantik turlari va funksional jihatlari kabi masalalar ayrim tadqiqotlar obyektini qilib olingan bo‘lsa-da, ularning lingvokognitiv asoslari ochib berilmagan, shuningdek, ingliz va o‘zbek tillaridagi “shart” konseptini voqelantiruvchi lisoniy birliklar, shu jumladan, ShKGlarning lingvokognitiv maydon tizimida olib tahlilga tortilmagan, qolaversa, mazkur til birliklarining lingvopragmatik, lingvokulturologik, lingvostilistik xususiyatlari ochib berilmagan, ularning translatologik va lingvodidaktik aspektlari e‘tibordan chetda qolganligi bois ushbu masalalarning monografik tadqiqot sifatida tadqiq etilishi o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Farg‘ona davlat universiteti “Til va tafakkur munosabati, madaniyat muammolari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot rejasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi ShKGlarni struktural-semantik, lingvokognitiv, lingvokulturologik va lingvopragmatik nuqtayi

Акимова Г.Н. Новое в синтаксисе современного русского языка. – М.: Высшая школа, 1990; Ильиш Б.А. Строй современного английского языка: учебник по курсу теор. грамматики для студ. пед. ин-тов – Изд. 2-е.: Просвещение, 1971; Богородицкий В.А. Общий курс русской грамматики. – М.: Соцэкгиз, 1935; Руднев А.Г. Синтаксис о сложном предложении. – М., 1959; Студнева А.И. Из наблюдений над функционально-семантическими отношениями вводных и вставных предложений // Учен. зап. М.ОП.И. Т. 197, 1967; Бархударов Л.С. Структура простого предложения современного английского языка. – М., 1966; Валгина Н.С., Розентал Д.Э., Фомина М.И. Современный русский язык. – М.: Логос, 2002; Розентал Д.Э., Голуб И.Б., Теленкова М.А. Современный русский язык. 11-е изд. – М., 2010; Иофик Л.Л. Проблема структуры сложного предложения в новоанглийском языке: Автореф. дисс... докт. филол. наук. – Л., 1965; Блох М.Я. Теоретические основы грамматики. – М., 1986; Биренбаум Я.Г. К теории сложного предложения (На материале английского языка) // Вопросы языкознания, 1982; Мухин А.М. Структура предложений и их модели. – Л., 1968; Черемисина М.И., Колосова Т.А. Очерки по теории сложного предложения. – Новосибирск: Наука, 1987; Хаймович Б.С., Роговская Б.И. Теоретическая грамматика английского языка. – М.: Высшая школа, 1967.

⁴Гуломов. А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987; Асқарова М.А. Способы подчинения и типы придаточных предложений в современном узбекском языке: Автореф. дисс... докт. филол. наук. – Ташкент, 1963; Асқарова М.А. Ҳозирги ўзбек тилида эргашиш формалари ва эргаш гаплар. – Тошкент: Фан, 1966; Абдурахмонов Ғ.А. Қўшма гап синтаксиси асослари. – Тошкент: ЎзФА, 1958; Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. – Тошкент, 1990; Бердиалиев А. Эргаш гапли қўшма гап конструкцияларида семантик-сигнификатив парадигматика. – Тошкент: Фан, 1989; Бердиалиев А. Координатив алоқа ва унинг хусусиятлари / Ўзбек тили ва адабиёти. 1989, № 3; Бердиалиев А. Ўзбек тилида омоним модели эргаш гапли қўшма гаплар. – Тошкент: Фан, 1990; Сайфуллаева Р.Р. Ҳозирги ўзбек адабий тилида қўшма гапларнинг шакл вазифавий (формал-функционал) талқини: Филол. фанл. докт. дисс... автореф. – Тошкент, 1993; Юсупов У.К. Сравнительный анализ английских и узбекских сложноподчиненных предложений с придаточными условными: Дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1971; Хошимов Ў, Бўронов Ж. Инглиз тили грамматикасининг норматив курси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989; Хошимов Г.М. Типология сложных предложений разносистемных языков. – Ташкент: Фан, 1991; Хошимов Г.М. Типология сложного предложения в разносистемных языках: Автореф. дисс... докт. филол. наук. – Ташкент, 2002; Абдувалиев М.А. Сложноподчиненные предложения с придаточными уступительными в разносистемных языках: Автореф. дисс...канд. филол. наук. – Ташкент, 1989; Махмудов Н., Нурманов А. Ўзбек тилининг назарий граматикаси. (синтаксис) – Тошкент: Ўқитувчи, 1995; Teshaboyev D.R. O‘zbek tilidagi ergash gapli qo‘shma gaplarning falsafiy tadqiqi: Filol. fanl. dokt. diss... avtoref. – Farg‘ona, 2023.

nazardan tadqiq qilish, ularning izomorfik va allomorfik jihatlarini tahlil etish va tarjima jarayoni uchun tegishli tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

hozirgi zamon tilshunosligida shart komponentli gipotaksema (ShKG)larga turlicha yondashuvlarni tahlil qilish va ilmiy ishning dolzarbligini asoslab berish;

ingliz va o'zbek tillaridagi ShKGlarning kognitiv xususiyatlarini tahlilga tortish, "shart" konsepti verbalizatorlarining maydon tabiatini ochib berish va uning yadroviy, dominant, periferial konstituyentlarini aniqlash va dalillash;

ingliz va o'zbek tillaridagi "shart" konsepti verbalizatorlaridan biri bo'lgan, ShKGlarning struktural-semantik turlarini aniqlash va ularning yangi tasnifini ishlab chiqish;

ingliz va o'zbek tillarida ShKGlarning kommunikativ (lingvopragmatik va lingvokulturologik) jihatlarini ochib berish;

ingliz va o'zbek tillarida ShKGlarning izomorfik va allomorfik jihatlarini tadqiq qilish, ular bilan bog'liq tarjima jarayonida uchraydigan muammolarni hal qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi turli funksional uslublar matnlariga xos bo'lgan shart komponentli gipotaksemalar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o'zbek tillaridagi shart komponentli gipotaksemalarning lingvokognitiv, lingvokulturologik hamda lingvopragmatik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Mavzuni yoritishda qiyosiy-chog'ishtirma, tavsifiy, struktural-semantik, lingvopragmatik, konseptual va lingvokulturologik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar bilan belgilanadi:

zamonaviy ingliz va o'zbek tillarida "shart" konseptual semantikasini voqelantiruvchi verbal birliklar ishda "konditsionema" atamasi ostida tizimlashtirilib, ularning "shart" maydoni konstituyentlari sifatidagi yadroviy, dominant va periferial maqomi ochib berilgan;

ingliz tilida ShKGlarning 40 ta, o'zbek tilida esa 52 ta struktural-semantik turi, shu jumladan, ularning ingliz tilida 21 xil, o'zbek tilida esa 29 xil yangi turlari ilk bor aniqlanib, ular modellashtirilgan, tavsiflangan, tasniflangan va dalillangan;

ingliz va o'zbek tillarida ShKGlarning kommunikativ sifati sifatidagi lingvopragmatik va lingvokulturologik tabiati ochib berilgan, shuningdek, ShKGlarning nutq aktlarida implikativ semantikani ifodalovchi kommunikativ-pragmatik turlari aniqlangan, tasniflangan va ularning lingvokulturologik xususiyatlari ochib berilgan va asoslangan;

tipologik jihatdan turli tizimga mansub bo'lgan, xususan, SVO tizimli ingliz va SOV tizimli o'zbek tillaridagi ShKGlarning izomorfik va allomorfik jihatlarini aniqlash orqali ularni bir tildan ikkinchi tilga o'girishda yuzaga keladigan muammolar ochib berilgan va ularni translatologik transformatsiyalar asosida bartaraf qilish bo'yicha tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

dissertatsiyada ingliz va o'zbek tillarida universal "shart" konseptini voqelantiruvchi verbal vositalar, shu jumladan, ShKGlarning tizimi aniqlanib, ularning maydon konstituyentlari sifatidagi maqomi ochib berilgan;

tadqiqotda ingliz va o'zbek tillaridagi ShKGlarning qiyosiy nazariyasi rivojlantirilib, ularning yangi struktur-semantik turlari aniqlangan, tavsiflangan, ta'riflangan va dalillangan;

ishda ingliz va o'zbek tillari nutqida qo'llaniladigan ShKGlarning o'ziga xos o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash orqali ularning tarjimai bilan bog'liq qiyinchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berilgan;

tadqiqotda umumiy tilshunoslik, shuningdek, uning lingvokognitologiya, lingvokulturologiya, lingvopragmatika, chog'ishtirma lingvistika, nazariy grammatika, tarjimashunoslik fanlari bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish hamda nazariy va amaliy kurslarning mukammallashuvi uchun xizmat qiluvchi shart konsepti verbalizatorlariga oid materiallar yig'ilgan va tizimli tahlilga tortilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi yondashuv va qo'llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga muvofiqligi, nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, tanlangan misollarning tadqiqot predmetiga mosligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, nazariy tilshunoslik metodologiyasi yordamida tahlil va talqin qilinganligi, natijalarning vakolatli tizimlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot natijalari va ilmiy nazariy xulosalaridan chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik yo'nalishlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishda foydalanish mumkin. Dissertatsiya materiallari tilshunoslik va tarjimashunoslikda bir-biriga qardosh bo'lmagan tillardagi sintaksemalar, shu jumladan, gipotaksemalarning boshqa turlarini struktural-semantik, kommunikativ-pragmatik va lingvokulturologik jihatdan tadqiq etish, shuningdek, ularning izomorfik va allomorfik xususiyatlarini ochib berish hamda tarjima bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishda yordam beradi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati tadqiqot natijasida olingan ilmiy-nazariy xulosalardan, "Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi", "Kognitiv tilshunoslik", "Pragmatik tilshunoslik", "Lingvokulturologiya", "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kabi nazariy fanlar va maxsus kurslarni o'qitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz-o'zbek tillaridagi ShKGlarning lingvokognitiv va lingvokulturologik xususiyatlarini qiyosiy o'rganish jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

ingliz va o'zbek tillarida ShKGlarning kommunikatemalar sifatidagi lingvopragmatik va lingvokulturologik tabiati ochib berilganligi, shuningdek, ShKGlarning nutq aktlarida implikativ semantikani ifodalovchi kommunikativ-pragmatik turlari aniqlanganligi, tasniflanganligi va ularning lingvokulturologik xususiyatlari ochib berilganligi va asoslanganligiga, hamda, zamonaviy ingliz va o'zbek tillarida "shart" konseptual semantikasini voqelantiruvchi verbal birliklar ishda "konditsionema" atamasi ostida

tizimlashtirilib, ularning “shart” maydoni konstituyentlari sifatidagi yadroviy, dominant va periferial maqomi ochib berilganligiga doir ilmiy natija va xulosalaridan 2022-2023-yillarda O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida amalga oshirilgan “O‘zbekiston milliy raqs san’atini targ‘ib etishga bag‘ishlangan veb-sayt va multimedia mahsulotlari (elektron lug‘atlar) to‘plamini yaratish” mavzusidagi F3-2019081663 raqamli fundamental loyihani bajarishda, xususan, “O‘zbek folklor san’ati terminlarining qisqacha o‘zbekcha-inglizcha-nemischa izohli lug‘ati”ni yaratishda foydalanildi. (O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2024-yil 1-yanvardagi №1/04-80 sonli ma’lumotnomasi). Natijada raqs san’atiga oid matnning lingvistik birliklarida “shart” konseptining voqelanishi masalasiga oydinlik kiritildi, ingliz va o‘zbek tillari lingvomadaniy birliklaridan biri bo‘lgan shart komponentli gipotaksemalarning lingvistik, milliy-madaniy va kommunikativ vazifalarini aniqlashga va ularni nutqda to‘g‘ri qo‘llashga doir ilmiy-nazariy va amaliy qarashlar mukammallashdi;

tipologik jihatdan turli tizimga mansub bo‘lgan, xususan, SVO tizimli ingliz va SOV tizimli o‘zbek tillaridagi ShKGlarning izomorfik va allomorfik jihatlarini aniqlash orqali ularni bir tildan ikkinchi tilga o‘girishda yuzaga keladigan muammolar ochib berilgan va ularni translatologik transformatsiyalar asosida bartaraf qilish bo‘yicha tegishli tavsiyalar ishlab chiqilishi asosida olingan xulosalaridan 2022-2023-yillarda O‘zMETRK “O‘zbekiston” teleradiokanalining “Bedorlik”, “Ijod zavqi”, “Ta’lim va taraqqiyot”, “Millat va ma’naviyat” eshittirishlarining ssenariysini tayyorlashda foydalanildi. (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 02-36-899-sonli ma’lumotnomasi). Natijada mazkur eshittirishlarning mazmuni boyitilib, ilmiy va amaliy salmog‘i orttirildi.

ingliz tilida ShKGlarning 40 ta, o‘zbek tilida esa 52 ta struktural-semantik turi, shu jumladan, ularning ingliz tilida 21 xil, o‘zbek tilida esa 29 xil yangi turlari ilk bor aniqlanib, ular modellashtirilganligi, tavsiflanganligi, tasniflanganligi va dalillanganligiga doir xulosalardan Qo‘qon davlat pedagogika institutida 2020-2022-yillarda bajarilgan S-ECAGD-18-CA-0067 (P020002335) raqamli “FY-18 English Access Microscholarship program” nomli Amerika Qo‘shma Shtatlari ta’lim va madaniy ishlar byurosi bilan hamkorlikdagi xalqaro loyiha doirasida foydalanilgan. (Qo‘qon davlat pedagogika institutining 2024-yil 3-dekabrda 1577/04 sonli ma’lumotnomasi). Natijada loyihaning ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy ahamiyati ortdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy konferensiyalarda, shu jumladan, 8 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma’ruza shaklida bayon qilingan, jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, ulardan 4 tasi xorijiy jurnalda nashr ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 156 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Zamonaviy tilshunoslikda qo'shma gaplar va ularning lingvokognitiv asoslari”** deb nomlangan birinchi bobi uchta faslni o'z ichiga oladi.

Ishning *“Qo'shma gaplar nazariyasi asoslari: ularning tavsifi, tasnifi va metatili masalalari”* deb nomlangan birinchi faslida jahon tilshunosligida qo'shma gaplarning, shu jumladan, ShKGlarning lisoniy mohiyatini tavsiflashda va tasniflashda struktural-semantik yondashuvga asoslangan muhim tadqiqotlar tahlil qilingan. Ularda V.A.Bogorodiskiy, V.V.Vinogradov, N.S.Pospelov, A.M.Peshkovskiy, L.L.Iofik, V.A.Beloshapkova, Y.V.Guliga, V.G.Admoni, M.V.Lyapon, M.I.Cheremisina, T.A.Kolosova, L.Ch.Lehmann, M.Ch.Matiessen, S.A.Tompson⁵ kabi taniqli xorijlik tilshunoslar, shuningdek, A.G'ulomov, G'.Abduraxmonov, M.Asqarova, O'.Yusupov, A.Mamajanov, N.Mahmudov, G'.Hoshimov, R.Sayfullayeva, A.Berdialiyev⁶ kabi o'zbek tilshunoslarining qo'shma gap sintaksisiga oid muhim ilmiy qarashlarida qo'shma gaplar nazariyasiga asos solinganligi va rivojlantirilganligini ko'ramiz. Bu o'rinda A.Nurmonov,

⁵Богородицкий В.А. Общий курс русской грамматики. – М.: Соцэкгиз, 1935; Виноградова С.Г. Коммуникативное членение сложного предложения: когнитивные основы: Монография. – Тамбов: Издательский дом ТГУ им. Г.Р. Державина, 2015; Пospelov Н.С. О грамматической природе сложного предложения // Вопросы синтаксиса современного русского языка. – М.: Учпедгиз, 1950 – С.321-337; Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. 7-е изд. – М.: Учпедгиз, 1956; Иofик Л.Л. Проблема структуры сложного предложения в новоанглийском языке: Автореф. дисс... докт. филол. наук. – Л., 1965; Белошapkova В.А. Сложное предложение в современном русском языке: Автореф. дисс... докт. филол. наук. – М., 1970; Гулыга Е.В. Теория сложноподчиненного предложения в современном немецком языке. – М.: Высшая школа, 1971; Адмони В.Г. Сложнопаянное предложение в тюркских языках // СТ, 1982. № 3. – С.30-36; Ляпон М.В. Смысловая структура сложного предложения и текст/к типологии внутритекстовых отношений: Автореф. дисс... докт. филол. наук. – М., 1985; Черемисина М.И., Колосова Т.А. Очерки по теории сложного предложения. – Новосибирск: Наука, 1987; Lehmann L.Ch. Towards a Typology of Clause Linkage // Typological Studies in Language, Vol. 18. – Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1988 – P.181-225; Mathiessen M.Ch., Tompson S.A. The Structure of Discourse and Subordination // Typological Studies in Language. Vol. 18. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 1988. – P.225-329.

⁶Гуломов А. Ўзбек тили синтаксисининг баъзи масалалари / Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1968. № 2. – Б.9-11; Абдурахмонов Ғ.А. Қўшма гап синтаксиси асослари. – Тошкент: ЎзФа, 1958; Аскарлова М.А. Способы подчинения и типы придаточных предложений в современном узбекском языке: Автореф. дисс... докт. филол. наук. – Ташкент, 1963; Юсупов У.К. Сравнительный анализ английских и узбекских сложноподчиненных предложений с придаточными условными: Дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1971; Мамажонов А. Стилистические особенности сложных предложений современного узбекского литературного языка: Автореф. дисс... докт. филол. наук. – Ташкент, 1991; Махмудов Н. Эргаш гапли қўшма гаплар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992. – Б.210-291; Хошимов Г.М. Типология сложных предложений разносистемных языков. – Ташкент: Фан, 1991; Сайфуллаева Р.Р. Ҳозирги ўзбек адабий тили формал-функционал талкинида қўшма гап. – Тошкент: Фан, 1993; Бердиалиев А. Эргаш гапли қўшма гап конструкцияларида семантик-сигнификатив парадигматика. – Тошкент: Фан, 1989.

N.Mahmudov, O'.Yusupov, A.Mamajonov, G'.Hoshimov, M.Abduvaliyev, D.Teshaboyev⁷ kabi tilshunos olimlarning qo'shma gaplar sohasida olib borgan fundamental tadqiqotlari mazkur sintaktik birliklar nazariyasini yanada boyitishda, bu sohada oldinda turgan dolzarb, istiqbolli masalalarni belgilab berishda muhim o'rin tutadi, chunki yuqorida ko'rsatilgan soha mutaxassislari ilmiy tadqiqotlari natijasi o'laroq, tilshunoslikda qo'shma gaplar, shu jumladan, ShKGlar nazariy asoslari yaratilganligi bo'lajak ilmiy ishlarga puxta zamin yaratadi.

Ingliz tilshunosligida qo'shma gap haqidagi fikrlar va ilmiy mushohadalar tarixan mavjud bo'lib, u haqidagi dastlabki mulohazalar G.Svit tomonidan qayd etilgan. U gaplarni ikki guruhga: sodda va murakkab turga ajratadi va ikki yoki undan ortiq sodda gaplarning mazmunan va grammatik jihatdan birikuvi natijasida murakkab gapning yuzaga kelishini e'tirof etadi⁸.

Shart ergash gapli qo'shma gaplar va ularning struktural-semantik jihatlari ingliz va o'zbek tillari doirasida O'.Yusupov⁹ tomonidan qiyosiy tadqiq qilingan. M.Cheremesina, M.Kolosova, M.Lyaponlarning fikricha, sabab, shart, to'siqsizlik, natija va maqsad munosabatlari shartlanganlik munosabatining beshta turlaridir¹⁰. Bunda shartlanganlik munosabatlarining voqelantirilishida "shart" semantikasini ifodalovchi bir voqea va ushbu voqeadan kelib chiquvchi ikkinchi bir voqea – "oqibat" voqeasini keltirib chiqaradi, ya'ni ikkinchi voqea birinchisining voqelantirilishi natijasiga ko'ra yuzaga chiqadi¹¹. N.Mahmudov va A.Nurmonovlar¹² ham ilk bor o'zbek tilida shartlanganlik munosabatlarining beshta turlarini aniqlaganlar va asoslab berganlar, biz ushbu muhim fikrni qo'llab-quvvatlaymiz.

Qo'shma gaplar tadqiqida tilshunos G'.M.Hoshimov tomonidan yaratilgan "taksemik nazariya" ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, unda, asosan, qo'shma gaplarning hajmi masalasiga, ya'ni ulardagi komponentlar soni, ularning struktural-semantik jihatlari, komponentlar orasidagi sintaktik bog'lanishlar (koordinativ, subordinativ va aralash) turlari, komponentlarning kommunikativ-pragmatik jihatlari, shuningdek, ularning terminologik apparati va metatilini yaratish kabi muhim masalalariga asosiy e'tibor qaratilgan. Mazkur tadqiqotda olim politaksemlarning ikki yoki undan ortiq komponentlardan tashkil topgan qo'shma gaplar ekanligini e'tirof etar ekan, ularni ikki muhim turga tasniflab, quyidagicha nomlagan: 1) ikki komponentli politaksemlar (kollotaksema, parataksema, gipotaksema, parentaksema); 2) uch va undan ortiq komponentli

⁷Махмудов Н., Нурманов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. (синтаксис) – Тошкент: Ўқитувчи, 1995; Юсупов У.К. Сравнительный анализ английских и узбекских сложноподчиненных предложений с придаточными условными: Дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1971; Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. – Тошкент, 1990; Хошимов Г.М. Типология сложного предложения в разносистемных языках: Автореф. дисс... докт. филол. наук – Ташкент, 2002; Teshaboyev D.R. O'zbek tilidagi ergash gapli qo'shma gaplarning falsafiy tadqiqi: Filol. fanl. dokt. diss... avtoref. – Farg'ona, 2023.

⁸Sweet H. A new English grammar: logical and historical. – Oxford: Clarendon Press, 1900. – P.278.

⁹Юсупов У.К. Сравнительный анализ английских и узбекских сложноподчиненных предложений с придаточными условными: Дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1971.

¹⁰Черемисина М.И., Колосова Т.А. Очерки по теории сложного предложения. – Новосибирск: Наука, 1987. – С.68; Ляпон М.В. Смысловая структура сложного предложения и текст/к типологии внутритекстовых отношений: Автореф. дисс... докт. филол. – М., 1985.

¹¹Черемисина М.И., Колосова Т.А. Ko'rsatilgan manba – С.68.

¹²Махмудов Н., Нурманов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. (синтаксис) – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б.97.

politaksemlar (gipertaksema, supertaksema, ultrataksema, arxitaksema, sinkretaksema)¹³. Ishda biz G'.M.Hoshimov taksemik nazariyasiga tayangan holda tadqiqotimiz tahlil obyekti – politaksemaning bir turi bo'lgan, ShKGlarning sof va aralash tarkibga ega bo'lgan turlarini tahlilga tortishga harakat qildik.

Mazkur bobning “*Gipotaksemlar va ularga lingvokognitiv yondashuv*” nomli ikkinchi faslida tilshunos G'.M.Hoshimovning politaksemik nazariyasiga asoslangan holda ShKGlarning kognitiv va lingvistik jihatlari tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotda biz tomonimizdan gipotakseмага berilgan quyidagi ta'rifga asoslanib ish ko'rdik: “Gipotaksema (GPT) politaksemaning shunday bir turiki, u sindetik/asindetik usulda bog'langan, propozitiv-nominativ vazifani bajaruvchi yirik lingvistik belgi orqali ifodalangan, vazifasiga ko'ra bir xil bo'lmagan ikkita tobelashtirilgan monotaksemlardan iborat bo'lgan sintaksema bo'lib, unda ifodalanadigan shartga asoslangan kommunikativ-implikativ intensiyani amalga oshirish bo'yicha muayyan subordinativ, struktural-semantik munosabatlarni ro'yobga chiqarish uchun maxsuslashgan yirik sintaktik birlikdir”¹⁴.

Tillardagi gipotaksemlar, shu jumladan, ShKGlarning quyidagi umumiy sxema bo'yicha tuziladi¹⁵:

./MT+s+MT./

Masalan: “*If we're cut off, we might as well have a drink*” (E.Hemingway. *A Farewell to Arms*, P.190); “*Agar biz jang chizig'idan uzilib qolsak, bir oz ichimlik ichib olsak ham bo'laveradi.*” (E.Xeminguey, *Alvido qurol / I.G'ofurov tarjimasini*. B.193).

ShKG nafaqat lingvistik nuqtayi nazaridan, balki kognitiv jarayonlarni ifodalash, voqealar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini modellashtirish va inson tafakkuridagi implikativ semantikani voqelantirish jihatidan ham muhim ahamiyatga ega. Kognitiv nuqtayi nazardan olganda, ShKGlarning asosida ikki xil kognitiv-konseptual voqelik, ya'ni “shart voqeligi” va “oqibat-natija voqeligi” yotadi. Shu voqeliklar juftligini tilda aks ettirishda ShKGlarning maxsus voqelantiruvchi vositalar – verbalizatorlar bo'lib sanaladi. Ularning turlari har xil bo'lib, “shart” voqeligi semantikasiga modal (real, noreal va h.k) ma'no ottenkalari qo'shib ifodalanishi ham mumkin. Unda shart voqeligi oqibat voqeligini amalga oshishini taqozo qiladi, ushbu voqeliklarning natijalariga ko'ra, ularning amalga oshmay qolgan holatlari kuzatilmaydi. (*Qiyoslang: U kelsa, biz kinoga boramiz – U kelmasa, bormaymiz*). Demak, bu ikki voqelik amalga oshsa, ko'zda tutilgan kommunikativ maqsadga erishiladi, aks holda uning teskarisi – aksi yuz berishi muqarrar, vaholanki, u yerda ham “shart” va “oqibat” voqeliklari mavjud.

“Shart/oqibat” yoki “oqibat/shart” munosabatlari universal tabiatga ega, chunki kerak vaziyatda mulohazani “shart” va uning “oqibat”larisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Jahondagi obyektiv borliq va insonlar (insonlar va narsalar, insonlar va insonlar, narsalar va narsalar) o'rtasidagi munosabatlar ostida ularning kognitiv

¹³Хошимов Г.М. Типология сложного предложения в разносистемных языках: Дисс... докт. филол. наук. – Ташкент, 2002. – С.117-137.

¹⁴Хошимов Г.М. Ко'rsatilgan asar. – С.117-137.

¹⁵Хошимов Г.М. Типология сложных предложений разносистемных языков. – Ташкент: Фан, 1991. – С.37.

asosi – “shartlanganlik/implikatsiya” yotganligidan, shu asosga muvofiq holda ular o‘rtasida “sabab+oqibat munosabatlari” so‘zsiz amalga oshirilishidan dalolat beradi.

Ushbu bobning uchinchi fasli “Konsept: “shart” konsepti va uni voqelantiruvchi vositalar maydoni” deb nomlangan va mazkur konseptning lingvokognitiv talqini va tahliliga bag‘ishlangan. Kognitiv tilshunoslik XXI asr boshidayoq lingvistikaning peshqadam sohalaridan biriga aylandi. Xorijlik olimlar J.Lakoff, R.Langacker, R.Jakendoff, E.Kubriyakova, Y.Stepanov, N.Boldirev¹⁶, o‘zbek olimlaridan Sh.Safarov, D.Ashurova, A.Mamatov, A.Abdiazizov, O‘.Yusupov, G‘.Hoshimov va boshqalarning tadqiqotlarida til birliklarining kognitiv asoslari hamda ularning voqelantirish xususiyatlari tizimli tadqiq etilgan va yoritilgan¹⁷.

Xorijiy tilshunoslikda shart semantikasini ifodalovchi shart mayli, shart holi, shart ergash gapli qo‘shma gaplar R.M.Teremova, A.P.Slivkov¹⁸ kabi olimlar, o‘zbek tilshunosligida M.Asqarova, A.Azizova, A.Rasulovalar¹⁹ paradigmatic jihatdan lingvosentrik tamoyillari asosida tadqiq etishgan. Biroq ingliz va o‘zbek tillarida shart konseptual semantikasini voqelantiruvchi tilning turli sathlariga xos verbalizatorlar va ularning maydoni tadqiq qilinmagan.

“Shart” konsepti lingvokognitiv maydonini qiyosiy asnodda o‘rganishimizda Sh.Iskandarova, G.Shur²⁰ kabi olimlarning ilmiy-nazariy izlanishlari metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

“Shart” konsepti tilda har bir muloqot olib boruvchi til egalari konseptosferasida mavjud bo‘lgan mental birlik bo‘lib, universal tabiatga ega, chunki u obyektiv borliqni in’ikos qilishda vaziyatga ko‘ra shart konseptual semantikasi bilan bog‘liq barcha bilimlarni verbal vositalar orqali voqelantirishini

¹⁶Lakoff G. *Women, Fire and Dangerous Things. What Categories Reveal about the Mind.* – Chicago and London: Chicago University Press, 1987; Langacker R.W. *Concept, Image, Symbol.* – Berlin: Mouton de Gruyter, 1990; Jackendoff R. *Semantics and Cognition.* – Cambridge: MIT Press, 1983; Кубрякова Е.С. О когнитивной лингвистике и семантике термина «когнитивный» / Вестник ВГУ, Серия лингвистика и межкультурная коммуникация. – Воронеж, 2001. – С.4-18; Степанов Ю.С. В трехмерном пространстве языка: Семиотические проблемы лингвистики, философии, искусства. – М.: Наука, 1985; Болдырев Н.Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики / Вопросы когнитивной лингвистики. – Тамбов, 2004. № 1. – С.18-36.

¹⁷Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006; Ашурова Д.У. Развитие когнитивной лингвистики в Узбекистане / Хорижий филология, 2016. № 3. – Б.54-60; Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг мохияти нимада? // Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишланган илмий-амалий анжуман материаллари). – Андижон, 2012. – Б.24-32; Абдуазизов А. О составных частях когнитивной лингвистики / Хорижий филология. – Тошкент, 2007. № 3 – Б.136; Юсупов Ў.Қ. Тилшуносликда янги йўналишлар ва уларда ишлатиладиган айрим истилохлар / Филология масалалари. – 2011. № 2. – Б.24; Хошимов Г.М. К актуальным проблемам теории концептов и их классификации в современной когнитивной лингвистике // Тил бирликларининг киёсий-типология ва лингвомаданиятшунослик йўналишларидаги тадқиқи ва уларнинг чет тилларни ўқитишдаги ўрни. Республика илмий-амалий анжумани мақолалари тўплами. – Тошкент, 2017. – Б.44-46.

¹⁸Теремова Р.М. Категория условия в функционально-грамматическом аспекте. – Л.: ЛГПИ им. А.И. Герцена, 1988; Сливков А.П. Совершенствование навыков выражения условных отношений в русской речи иностранных стажеров: В условиях краткосроч. обуч: Дисс. ... канд. пед. наук. – Санкт-Петербург, 1988.

¹⁹Аскарлова М.А. Способы подчинения и типы придаточных предложений в современном узбекском языке: Автореф. дисс... докт. филол. наук. – Ташкент, 1963; Азизова А.Г. Условный период в современном узбекском литературном языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Л., 1952; Расулова А.М. Ўзбек тилининг шарт ва тўсиқсизлик майдони: Филол. фанл. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2018.


²⁰Искандарова Ш. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол. фанл. докт. дисс... автореф – Тошкент, 1999; Щур Г.С. Теория поля в лингвистике. – М.: Наука, 1974.

taqozo etadigan, shu bois kommunikativ ehtiyoj nuqtayi nazardan olinganda, o'ziga xos ravishda freymlashgan tarkibga ega bo'lgan muhim konseptual hodisa bo'lib, istalgan tilda, shu jumladan, ingliz va o'zbek tillarida quyidagi invariant til birliklari orqali voqelantiriladi.

1) morfologik vositalar; 2) leksik vositalar; 3) sintaktik vositalar: a) frazemalar (so'z birikmalari) va qo'shma sentensemalar; b) sentensemalar (sodda); 4) frazeologik vositalar; 5) proverbial vositalar (maqol va matallar); 6) tekstologik vositalar.

Shart konseptini voqelantirish qobiliyatiga ega bo'lgan lisoniy vositalarning yuqoridagi invariant turlari birgalikda shart konsepti maydonini tashkil etadi va bu maydonning barcha yadroviy, dominant va periferial konstituyentlarini shartli ravishda "konditsionema" umumatamasi bilan nomlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tillardagi sathlar bilan bog'liq holda shart konseptini voqelantiruvchi verbalizatorlar lingvokognitiv (morfemik, leksik, sintaktik, frazemik, sentensemik, frazeoemik, tekstemik) mikromaydonlarini hosil qiladi. Tahlillarimiz asosida shu narsa aniqlandiki, maydon yadrosini gipotaksemlar, xususan, shart komponentli gipotaksemlar tashkil etadi, chunki ular bu konseptni voqelantirishda eng maxsuslashgan birliklardir, uning dominantasini monotaksemlar, periferiyasini qolgan konstituyentlari (morfema, leksema, frazema, frazeoema, proverbema va tekstemalar) tashkil etadi. Shunday qilib, tilda implikativ ("shart+oqibat") munosabatlar maydoni yuqorida zikr etilgan barcha konstituyentlari orqali tizimli voqelantiriladi, shu jumladan, maydon verbalizatorlari o'rtasidagi sinonimik, omonimik va antonimik implikativ munosabatlar ham shart maydoni miqyosida qat'iy ravishda tegishli qatorlarda amalga oshiriladi (1.1.1-diagrammaga qarang):



1.1.1-diagramma. "Shart" konsepti verbalizatorlarining lingvokognitiv maydoni

"Turli tizimli tillarda shart komponentli gipotaksemalarning struktural-semantik va lingvopragmatik jihatlari qiyosiy tadqiqi" nomli ikkinchi bob uch faslni o'z ichiga olgan.

Bobning birinchi fasli “*Ingliz va o‘zbek tillarida shart komponentli gipotaksemlarning struktural-semantik turlari qiyosiy tadqiqi*” deb nomlangan bo‘lib, unda ingliz va o‘zbek tillarida ShKGlarning struktural-semantik jihatlari tahlilga tortilgan.

Ishda qiyoslanayotgan tillardagi ShKGlarning struktural-semantik xususiyatlarini qiyosiy-tipologik, kvantitativ va kvalitatif tahlillari asosida ilk bor ularning ingliz tilida jami 40 ta va o‘zbek tilida 52 ta turi aniqlandi, ular modellashtirildi va tegishli misollar bilan dalillandi, natijada ingliz tilida ularning quyidagi 21 ta yangi turi e’tirof etildi (1-ilova. 2.1.-jadvalga qarang)²¹.

O‘zbek tilida esa jami ShKGlarning quyidagi 29 ta yangi turi aniqlandi (2-ilova. 2.2-jadvalga qarang)²².

Ta’kidlash lozimki, ingliz tilidan farqli o‘laroq, o‘zbek tilida ShKGlarning shart bog‘lovchi vositalari tobe komponentining boshida (yoki og‘zaki nutqda uning egasidan keyin) kelishi kuzatiladi.

Ishda ShKGlarning ko‘p mezonli tasnifi ham ishlab chiqilgan bo‘lib, unda ShKGlarning strukturaviy xususiyatlariga ko‘ra quyidagicha tasniflangan: 1) ShKGlarning komponentlarining bog‘lanish usuliga ko‘ra; 2) ShKGlarning tarkibida ishtirok etgan subordinatlarning joylashish tartibiga ko‘ra; 3) ShKG shart komponent qismining bosh komponentga nisbatan joylashish tartibiga ko‘ra.

Tadqiqotda ShKGlarning funksional-semantik jihatlari asosida ularni quyidagi 10 ta turga tasniflandi: 1) sof shart semantikasini ifodalovchi; 2) sinkretik qorishiq semantikani ifodalovchi; 3) real shart semantikasini ifodalovchi; 4) noreal shart semantikasini ifodalovchi; 5) mutlaq qamrovli shart semantikasini ifodalovchi; 6) nomutlaq qamrovli shart semantikasini ifodalovchi; 7) qat’iy shart semantikasini ifodalovchi; 8) noqat’iy shart semantikasini ifodalovchi; 9) ijobiy shart semantikasini ifodalovchi; 10) salbiy shart semantikasini ifodalovchi ShKGlarning, ularning har bir turi tavsiflandi va misollar bilan dalillandi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli “*Ingliz va o‘zbek tillarida shart komponentli gipotaksemlarning shart komponenti tarkibida qo‘llaniladigan mayllar*” tadqiqiga bag‘ishlangan.

Maxsus adabiyotlarda ingliz tilida quyidagi 3 mayl turi mavjudligi e’tirof etiladi²³: 1) aniqlik mayli (indicative mood); 2) buyruq mayli (imperative mood); 3) shart mayli (subjunctive mood). O‘zbek tilida esa 4 ta mayl borligi haqida fikrlar mavjud: 1) buyruq-istak mayli (fe’lning 2-shaxs birlik va ko‘plik shakllari); 2) shart mayli (-sa); 3) xabar/ijro yoki aniqlik mayli (uning maxsus affiksi yo‘q)²⁴; 4) maqsad mayli (-moqchi)²⁵.

²¹Bu haqda avtoreferatning 53-betidagi 1-ilovaga qarang.

²²Bu haqda avtoreferatning 54-betidagi 2-ilovaga qarang.

²³Каушанская В.Л., Ковнер Р.Л., Кожевникова О.Н., Прокофьева Е.В., Райнес М., Сквирская С.Е., Цырлина Ф.Я. Грамматика английского языка. Пособие для студентов педагогических институтов. – Ленинград: Просвещение, 1953; Иванова И.П., Бурлакова В.В., Почепцов Г.Г. Теоретическая грамматика современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1981. – С.68-74.

²⁴Гурсунов У., Мухторов А., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б.327.

²⁵Ҳозирги ўзбек адабий тили (коллектив). – Тошкент, 1966. – Б.295-300; Собирова М.И. Изучение глаголы настоящего и будущего времени в узбекском языке / Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities Volume 32, July 2024.

Tahlillarimiz natijasida ShKGlarning komponentlarida qo'llaniladigan mayl turlari o'rtasidagi quyidagi bog'liqliklar aniqlandi:

1) agar ingliz tili ShKGlarning tobe komponenti kesimida aniqlik maylining hozirgi zamon shakli qo'llanilsa, uning bosh komponenti kesimida aniqlik maylining kelasi zamon shakli qo'llaniladi, masalan:

"If he comes, we shall help him." (E.Hemingway, A Farewell to Arms. P.89) (tarjimasi: Agar u kelsa, biz unga yordam beramiz).

2) agar ingliz tili ShKGlarning tobe komponenti kesimida aniqlik maylining o'tgan zamon shakli qo'llanilsa, uning bosh komponenti kesimida shart maylining o'tgan kelasi zamon shakli (should/would+inf) qo'llaniladi, masalan:

"If he came now, we would/should help him." (tarjimasi: Agar u hozir kelsa edi, biz unga yordam berardik).

3) agar ingliz tili ShKGlarning tobe komponenti kesimida aniqlik maylining o'tgan perfektli (tugallangan) zamon shakli qo'llanilsa, uning bosh komponenti kesimida shart maylining o'tgan perfektli (tugallangan) kelasi zamon shakli (should/would+perfect inf.) qo'llaniladi, masalan:

"If he had come the day before, we would/should have helped him." (tarjimasi: Agar kecha kelganda edi, biz unga yordam bergan bo'lardik (shart mayli)).

O'zbek tilida esa mayllar o'rtasida moslashuvning quyidagi qonuniyatlari aniqlandi:

1) agar ShKGlarning tobe komponenti kesimida shart maylining hozirgi-kelasi zamon shakli qo'llanilsa, ularning bosh komponenti kesimida aniqlik maylining hozirgi-kelasi zamon shakli qo'llaniladi:

"Odatda, agar u kechiksa, bizga qo'ng'iroq qiladi." (Farg'ona haqiqati gazetasidan) (tarjimasi: Usually, if he is late, he will call us);

2) agar ShKGlarning tobe komponenti kesimida shart maylining hozirgi-kelasi zamon shakli qo'llanilsa, ularning bosh komponenti kesimida aniqlik maylining kelasi zamon (-ar) shakli qo'llaniladi:

"Agar u kechiksa, bizga qo'ng'iroq qilardi" (tarjimasi: If he were late, he would call us);

3) agar ShKGlarning tobe komponenti kesimida aniqlik maylining o'tgan perfektli (tugallangan) zamon shakli qo'llanilsa, ularning bosh komponenti kesimida o'tgan perfektli (tugallangan) zamon shakli ("gan -ar") qo'llaniladi:

"Agar u kech kelganda edi, bizga qo'ng'iroq qilgan bo'lardi" (tarjimasi: If he had been late, he would have called us).

Tahlillarimiz natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz va o'zbek tillarida ShKGlarning tobe komponenti kesimida aniq "shart" voqeligi ifodalanadi, ularning bosh komponenti kesimida esa shu shartning bajarilishidan kelib chiquvchi aniq – real natija – "oqibat" voqeligi ifodalanadi. ShKGlarning komponenti kesimidagi shart mayli esa, ularning tobe komponenti kesimida ifodalanadigan gipotetik – taxminiy, ya'ni nazarda tutilgan voqeliklarni ifodalash uchun qo'llaniladi. Shu bois, ushbu gipotaksemalarning komponentlari orasidagi turli semantik munosabatlar noreal "shart+oqibat" yoki "oqibat+shart" kognitiv voqeligini ifodalashga bevosita xizmat qiladi.

Ikkinchi bobning “*Ingliz va o‘zbek tillarida shart komponentli gipotaksemalarning lingvopragmatik turlari qiyosiy tadqiqi*” deb nomlangan uchinchi faslida ShKGlarning lingvopragmatik tabiati ochib berilgan.

Lingvistik pragmatika tildan tashqaridagi omillarni hisobga olgan holda til hodisalarini tadqiq qiladi va gapning maqsadi, nutq taktikasi, gapning ma’nosi, gapning adresatga ta’siri, og‘zaki muloqot shakllari, ishtirokchilar o‘rtasidagi munosabatlar, aloqalari kabi muhim masalalarni o‘rganadi. Bu o‘rinda nutq aktlarining kundalik muloqotdagi o‘rni beqiyos bo‘lib, ularning nazariy asoslari J.Serl, Sh.Safarov, M.Mohammadi, J.Fisher, S.Muminov, M.Hakimov va boshqa bir qator olimlarning ilmiy tadqiqotlarida yaratilgan, shu jumladan, shart gaplar bilan bog‘liq nutq aktlari ham ularning e’tiborini o‘ziga tortgan²⁶. Nutq aktlarining tasnifi (assertivlar, reprezentativlar, direktivlar, komissivlar, deklarativlar va ekspressivlar) muayyan darajada ishlab chiqilgan²⁷.

Ishda ShKGlarning nutq aktlari bilan bog‘liq lingvopragmatik jihatlarini ochib berishda M.Hakimovning quyidagi fikrlariga tayangan holda ish ko‘rdik: “Nutqiy akt nazariyasiga xos har bir tadqiqiy talqinda nutq subyektining olamni bilish va his qilishdagi tasavvur ko‘rsatkichlarining nutqdagi darajalari hisobga olinadi. Nutqiy akt nazariyasiga xos mana shunday o‘zak tadqiqiy talqin lingvistik pragmatika tarmog‘ining shakllanishi uchun asosiy mezon vazifasini bajaradi”²⁸. Nutqiy akt nazariyasida nutqning lokutsiya, illokutsiya va perlokutsiya singari uch muhim turi farqlanadi²⁹. Bunday jihatlar ShKGlaring lingvopragmatik jihatlariga xos bo‘lib, ular kundalik muloqotda kognitiv implikativ nutq aktlarining rang-barang qirralarini ochib berishga zamin yaratadi.

Nutq aktlar nazariyasiga ko‘ra, implikativ – shart semantikasini ifodalovchi gipotaksemalar implitsit performativlar bo‘lib, ular mazkur semantikani ifodalabgina qolmasdan, adresantning implitsit tarzda adresat diqqat-e’tiborini biror narsaga tortish, ko‘p hollarda fikrlar, voqeliklar, tushunchalarning implikativ tabiatini ochib berish, shu yo‘sinda adresantning kommunikativ intensiyani adresat tomonidan to‘g‘ri tushunilishi va eng muhimi adresatning unga bo‘lgan adekvat/noadekvat munosabatiga erishish kabi kommunikativ-pragmatik vazifalarni ham bajaradi.

Tadqiqotda qiyoslanayotgan tillarda implikativ nutq aktlarining ikki muhim turi, ya’ni sof va qorishiq implikativ nutq aktlariga tavsiflangan va dalillangan (3-ilova. 2.2.1-jadvalga qarang)³⁰.

²⁶John R.S. A Classification of Illocutionary acts / Language in Society, 1976 Vol. 5, № – P.1-23; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008; Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фанл. докт. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Хақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013; Mohammadi M., Fischer J., Langner M. & Klabunde R. Conveying the user’s intention by generating speech act conditionals as indirect answers // Proceedings of the 14th Conference on Natural Language. – Austria: Ruhr-Universität, 2018. – P.80-88.

²⁷John R.S. A Classification of Illocutionary acts / Language in Society, 1976 Vol. 5, № 1. – P.1-23.

²⁸Хақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б.6.

²⁹Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.

³⁰Bu haqda avtoreferatning 55-betidagi 3-ilovaga qarang.

Uchinchi bob “**Turli tizimli tillarda shart komponentli gipotaksemlarning lingvokulturologik jihatlari qiyosiy tadqiqi va tarjima muammolari**” deb nomlanib, u uchta fasldan tarkib topgan.

Bobning “*Ingliz va o‘zbek tillarida shart komponentli gipotaksemlarning lingvokulturologik jihatlari qiyosiy tadqiqi*” nomli birinchi faslida ShKGlarning turli lingvokulturologik xususiyatlari ochib berilgan. Tillarda ShKGlarning o‘ziga xos lingvokulturologik xususiyatlari bilan boshqa sintaktik birliklardan ajralib turadi. Bunday xususiyatlar lingvokulturologiya sohasining tadqiqot obyekti hisoblanib, tilshunoslikda ushbu yo‘nalishning rivojlanishiga bag‘ishlangan muhim ilmiy tadqiqotlar yaratilgan.

ShKGlarning lingvokulturologik xususiyatlarga ega bo‘lgan, keng qo‘llaniladigan turlari haqida gap ketganda, ShKGlarning proverbial turlarida betakror lingvokulturologik xususiyatlar voqelantirishini ta’kidlash lozim, masalan: **a) ingliz tilida:** “*If my aunt had been a man, she’d have been my uncle*”; “*If the blind lead the blind, both shall fall into the ditch*”; “*If we can’t as we would, we must do as we can*”, “*when pigs fly*” va h.k.; **b) o‘zbek tilida:** “*Agar xolam erkak bo‘lganida edi, u mening tog‘am bo‘lar edi*”; “*Agar ko‘r ko‘rni boshqarsa, ikkalasi ham xandaqqa tushadi*”; “*Agar osmon qulasa, biz to‘rg‘aylarni tutamiz*”; “*Agar bulutlar bo‘lmasa, biz quyoshdan zavqlanmasligimiz kerak*” kabi “*proverbemalar*”³¹, shuningdek, “*bog‘dan kelsa, tog‘dan kelmoq*”; “*yog‘ tushsa, yalagudek*”; “*osmonga chiqsa, oyog‘idan, yerga kirsam, qulog‘idan tortmoq*”; “*otdan tushsa ham, egardan tushmaslik*”; “*og‘zing qani desa, qulog‘ini ko‘rsatmoq*”; “*tog‘ni ursa, tolqon qiladigan*”; “*chumchuq chir etsa, yuragi pir etadi*”; “*dunyoni suv bossa, to‘pig‘iga chiqmaydi*”; “*tegirmonga tushsa, butun chiqmoq*”; “*tepsa tebranmas*”, “*tuyani dumi yerga tekkanda*” kabi frazeologik birliklar o‘zida bir vaqtda ham denotativ, ham konnotativ, ya’ni lingvokulturologik semantikalarini mujassamlantirgan sinkretik til birliklari bo‘lib, ular lingvokulturremalarga yorqin misol bo‘la oladi. Ularda ingliz va o‘zbek tillarida “shart-oqibat” kognitiv voqeligining ShKGlarning orqali ifodalangan lingvokulturremalardagi etnolingvokulturologik o‘ziga xos betakror xususiyatlar o‘z aksini topgan, bu esa turli til va madaniyat sotsiumlariga taalluqli shaxslarning milliy-madaniy tafakkurining tilda bevosita va bilvosita namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Ingliz tilida ShKGlarning tarkibida *if, unless, once, in case, on condition that* kabi an’anaviy subordinatlari qatorida, ularning 21 ta yangi bog‘lovchi vositalar orqali bog‘langan turlari ham mavjudligi e’tirof etilgan bo‘lib, ular batafsil tavsiflangan va dalillangan hamda jadvalga solingan. Tahlillarimizda ingliz tilida “*if, unless, in case, on condition that*” kabi, o‘zbek tilida esa ShKGlarning “*agar, garchi, gar, modomiki, mabodo*” kabi subordinatlari bilan bog‘langan an’anaviy turlari bilan bir qatorda, ularning 29 tadan ortiq yangi subordinatlari (ingliz tilida: “*on the understanding that*”, “*with the understanding that*”, “*conceding that*”, “*granted that*”, “*granting that*”, “*given (that)*”,

³¹Proverbemalar haqida qarang: Хошимов Г.М. и др. Актуальные проблемы терминологического аппарата и метаязыка исследования пословиц и поговорок / Научный Вестник ФерГУ, 1-2025. – С.213- 219.

“*considering (that)*”; o‘zbek tilida: “...-gan holda”, “...-gan taqdirda”, “*Olaylik...-sa*”) orqali bog‘langan turlari aniqlanib, tizimli tahlilga tortilgan hamda tavsiflab berilgan. Ular orasida ShKGlarning qorishiq turlari ham aniqlangan va izohlangan. Ingliz va o‘zbek tillarida ShKGlarning, ya’ni sof va qorishiq (sinkretik) turlarining paydo bo‘lishi ham so‘zlashuvchilar yoki yozuvchilarning lingvomadaniyatidagi muhim rivojlanish jarayonlarining pirovard natijasini ko‘rsatadi.

Ushbu faslda ingliz va o‘zbek tillarida ShKGlarning lingvokulturema maqomidagi turlari quyidagi ikki muhim omil bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan xususiyatlarga ko‘ra tavsiflanishi va tahlil qilinishiga asosiy e’tibor qaratilgan: 1) *lingvistik omillar*: a) rang-barang lingvokulturologik semantikalarga boy ShKGlarning mavjudligi; b) ShKGlarning o‘zaro va boshqa sintaktik qurilmalar bilan sinonimlik, omonimlik, hatto antonimlik munosabatlariga ham kirishishi; d) kundalik muloqotda ShKGlarning monosemantik, polisemantik va sinkretik turlarining muloqotdoshlar tomonidan farqlab, tanlab qo‘llanilishi; e) ShKGlarning uzual va okkazonal turlarining mavjudligi va muloqotda qo‘llanilishi; f) ShKGlarning komponentlarini bir-biriga bog‘lovchi *agar, garchi, gar, modomiki, mabodo* kabi subordinatlarning arab, fors kabi tillardan o‘zlashtirilganligi, ularning yangi turlarining paydo bo‘lganligi va qo‘llanilishi va h.k.; 2) *ekstralingvistik omillar*: ShKGlarning qo‘llanilishi muayyan til egasining: a) ijtimoiy maqomi, lavozimi va kasbiy jihatlari bilan bog‘liqligi; b) hayot tarzi, qiziqishlari va iqtisodiy turmushi bilan bog‘liqligi; d) diniy e’tiqodi va qiziqishlari bilan bog‘liqligi; e) ShKGlarning ishlatilishi til egasining til madaniyatiga oid bilimlari darajasi va layoqatiga bog‘liqligi va h.k.

Ushbu bobning “*Ingliz va o‘zbek tillarida shart komponentli gipotaksemlarning izomorfik va allomorfik jihatlari hamda ularni taqozo etuvchi omillar*” nomli ikkinchi faslda ingliz va o‘zbek tillarida ShKGlarning izomorfik va allomorfik xususiyatlari tahlilga tortilgan.

Analitik tillarga mansub ingliz tili va agglyutinativ tillar vakili bo‘lgan o‘zbek tilidagi ShKGlarning qator izomorfik va allomorfik jihatlarga ega bo‘lib, ularning *izomorfik* jihatlari quyidagicha:

- 1) qiyoslanayotgan tillarda “shart-oqibat” kognitiv semantikasini voqelantiruvchi til vositalari tizimining mavjudligi;
- 2) “shart-oqibat” kognitiv semantikasini voqelantiruvchi til vositalarining lingvokognitiv maydonining mavjudligi;
- 3) ShKGlarning maydonning maxsuslashgan yadroviy konstituentlari sifatidagi maqomi;
- 4) gipotaksemlar tizimida ShKGlarning kichik tizimining mavjudligi;
- 5) ShKGlarning sof implikativ semantikasini voqelantiruvchi turlarining mavjudligi;
- 6) ShKGlarning qorishiq implikativ semantikasini voqelantiruvchi turlarining mavjudligi;
- 7) ShKGlarning bosh gapdan anglashilgan voqea, hodisa, harakat va belgi-xususiyatlarning qanday shart-sharoitlarda ro‘y berishi yoki ro‘y bermasligini ifodalashi;
- 8) ShKGlarning kamida ikki (bosh va tobe) komponentlardan iboratligi;
- 9) ShKGlarning komponentlarini bir-biriga bog‘lashda shart subordinatlarning qo‘llanilishi;
- 10) ShKGlarning ikki turi – sindetik va asindetik turlarining mavjudligi;
- 11) har ikkala tilda subordinatlar ShKGlarning tobe komponenti tarkibida qo‘llanilishi;
- 12) ShKGlarning shart komponent qismi bosh

gapga nisbatan postpozitiv, prepozitiv, interpozitiv tartibda joylashishi mumkinligi; 13) har ikkala tilda ShKGlarda tobe komponentning bosh komponentdan oldin kelish holatlari ko‘proq kuzatilishi; 14) ShKGlarning uzual va okkazional turlarining mavjudligi; 15) ShKGlarning tilning mavjud barcha funksional uslublariga, shu jumladan, diniy uslubga ham xosligi va h.k.

Ingliz va o‘zbek tillarida ShKGlarning allomorfik jihatlari esa quyidagilardan iborat: 1) ingliz tilida ShKGlarning jami 40 ta, o‘zbek tilida 52 ta struktural-semantik turi mavjudligi; 2) ingliz tilida ShKGlarning komponentlarini bog‘lovchi barcha shart subordinatlari analitik vositalar bo‘lsa, o‘zbek tilida ularning analitik, sintetik va analitik-sintetik turlari ham mavjudligi; 3) ingliz tilida bosh komponentga tobe komponenti “if” orqali bog‘langan ShKGlarning soni jihatdan ustun, o‘zbek tilida esa “agar ... -sa” analitik-sintetik subordinatlari orqali bosh komponentga bog‘langan tobe komponentli ShKGlarning soni ko‘pligi; 4) ingliz tilida ShKGlarning shart komponenti tarkibida keluvchi subordinatlari faqat prepozitsiyada kelishi, o‘zbek tilida esa ular prepozitsiya, interpozitsiya, postpozitsiya va pre-postpozitsiyada kelishi mumkinligi; 5) ShKGlarning ikkala tilda yuzaki strukturasi bilan farqlansa-da, ichki (ma‘no) strukturasi jihatidan farqlanmasligi va h.k.; 6) o‘zbek tilida eron tillaridan olingan (agar, gar, basharti, mabodo kabi) subordinatlari shart semantikasini kuchaytirishga ham xizmat qilishi va h.k. ShKGlarning yuqorida ko‘rsatilgan izomorfik va allomorfik jihatlari ingliz tilida gapning tayanch qolipi SVO, o‘zbek tilida esa SOV ekanligi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ShKGlarning barcha turlarining bosh va tobe komponentlari shu qoliplar asosida hosil qilinadi.

Ushbu bobning uchinchi fasli “Ingliz va o‘zbek tillarida shart komponentli gipotaksemalarning translatologik aspekti” deb nomlangan bo‘lib, unda ShKGlarni bir tildan ikkinchi tilga o‘girish jarayoni tahlilga tortilgan.

Ishda ingliz va o‘zbek tillaridagi ShKGlarning tarjimaviy muammolari qiyosiy tahlil qilinib, tadqiqot obyekti sifatida Ernest Xemingueyning “Alvido qurol” (“A Farewell to Arms”) asari hamda uning I.G‘afurov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan varianti tanlab olindi.

Tadqiqotda ShKGlarni ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida taniqli tilshunos-tarjimashunos olim L.S.Barhudarovning tarjimada transformatsiya, ya‘ni almashtirish metodiga³² asoslangan holda ularning tillararo mutanosiblik darajasini aniqladik. ShKGlarning translatemalar³³ (tarjima birliklari) sifatida bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilishda quyidagi uch asosiy tarjima usullarini aniqladik:

1) **analogik tarjima usuli** (asl nusxa tilidagi til birligini aynan shaklan va ma‘nosiga ko‘ra mos tushadigan tarjima birligi orqali o‘girish usuli), masalan:

“I could have asked him to come, if I had seen him yesterday.” (E.Hemingway, A Farewell to Arms. P.103) *Agar uni kecha ko‘rganimda edi, undan kelishini so‘ragan bo‘lardim.* (E.Xeminguey, Alvido qurol / I.G‘ofurov tarjimasi. B.105).

³²Бархударов Л.С. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода). – М.: Международные отношения, 1975. – С.118.

³³Hoshimov G.M., Khoshimov M.G., Hoshimov A.G. General theory of translation and problems of metalanguage / Journal of science, education, society, Issue 1, March 2024. – P.19-23.

2) **ekvivalent tarjima usuli** (asl nusxa til birligini shaklan mos bo‘lmagan, lekin ma’nosiga ko‘ra to‘liq mos tushadigan tarjima birligi orqali tarjima qilish usuli), masalan:

“He hostages, if strictly questioned, will tell the bare truth.” Garovga olinganlar qattiq so‘roq qilinsa, bor haqiqatni aytadi. (E.Xeminguey, Alvido qurol / I.G‘ofurov tarjimasini. B.214).

3) **parafraza usuli** (asl nusxa til birligining ma’nosini izohlash, tushuntirish orqali tarjima qilish usuli), masalan:

“If he comes, it is all right, if not, then don’t wait for him!” (E.Hemingway, A Farewell to Arms, P.218) *U kelsa-keldi, bo‘lmasa uni kutib o‘tirma!* (E.Xeminguey, Alvido qurol / I.G‘ofurov tarjimasini. B.220).

Ishda ingliz va o‘zbek tillaridagi ShKGlarning tillaro muqobillik darajasi ularning barcha turlari bo‘yicha batafsil ochib berilgan, ularning nomutanosiblik holatlari bo‘yicha qiyinchiliklarni bartaraf qilish maqsadida tegishli tavsiyalar berilgan.

XULOSA

1. Til eng muhim va qulay muloqot vositasi sifatida til egalariga muntazam xizmat qilib keladi, unda til sathlaring barcha birliklari birgalikda kommunikativ vazifalarni bajaradi. Bunday til birliklari orasida sintaksemalarning yirik turi bo‘lgan qo‘shma gaplar – politaksemalarning, shu jumladan, ularning nutqda ko‘p qo‘llaniladigan bir invariant turi bo‘lgan ShKGlarning o‘rni va maqomi o‘ziga xos bo‘lib, kundalik muloqotni ularsiz tasavvur qilish qiyin.

2. Ushbu tadqiqotda qiyosiy tahlil obyekti etib tanlangan ShKGlarni quyidagi ta’rifimiz asosida tadqiq etishga harakat qildik: “Gipotaksema (GPT) politaksemaning shunday bir turiki, u sindetik/asindetik usulda bog‘langan. Propozitiv-nominativ vazifani bajaruvchi yirik lingvistik belgi orqali ifodalangan, vazifasiga ko‘ra bir xil bo‘lmagan ikkita tobelashtirilgan monotaksemalardan iborat bo‘lgan sintaksema bo‘lib, unda ifodalanadigan shartga asoslangan kommunikativ-implikativ intensioniyani amalga oshirish bo‘yicha muayyan subordinativ struktural-semantik munosabatlarni ro‘yobga chiqarish uchun maxsuslashgan yirik sintaktik birlikdir”.

3. Tilda, xususan, ShKGlarning qo‘shma gap tizimiga ega bo‘lgan har qanday til, jumladan, ingliz va o‘zbek tillari sintaktik birliklari tizimida o‘z lisoniy maqomiga ega. ShKGlarning nafaqat lingvistik, balki kognitiv nuqtayi nazardan ham “shart” va “oqibat” voqeliklari o‘rtasidagi mavjud uzviy sabab-oqibat munosabatlarini aks ettiradi. Bu munosabatlar universal tabiatga ega bo‘lib, tilda maxsus verbalizatorlar orqali ifodalanadi. Shart voqeligi doimo oqibat voqeligini taqozo qiladi va bu ikki voqelik amalga oshgan holdagina kommunikativ maqsadga erishiladi.

4. Ingliz va o‘zbek tillarida “shart” konsepti quyidagi til birliklari yordamida ifodalanadi: 1) morfema; 2) leksema; 3) sintaksema (frazema va sentensema: gipotaksema – ShKG); 4) frazeoema; 5) proverbema (maqol va matallar); 6) tekstema. Til birliklarining mazkur invariant turlari birgalikda tildagi “shart” konsepti verbalizatorlarining lingvokognitiv maydonini tashkil etadi. Bu maydonda ShKGlarning uning yadroviy konstituenti, sintaksema (frazema va sodda

sentensemalar uning dominantasi, morfema, leksema, frazeoema, proverbema va tekstemalar esa maydonning periferial konstituyentlarini tashkil etadi.

5. Ishda ShKGlarning struktural-semantik xususiyatlari asosida ingliz tilida ularning jami 40 ta, o'zbek tilida 52 ta turlari aniqlandi. Qiyoslanayotgan tillarda ShKGlarning strukturaviy xususiyatlariga ko'ra ularni quyidagicha tasniflashga asos bor: 1) bog'lovchi vositalarning ishtirokiga ko'ra; 2) bog'lovchi vositalarning joylashish tartibiga binoan; 3) shart komponentning bosh komponentga nisbatan joylashish o'rniga muvofiq. Bog'lovchi vositalarning ishtirokiga ko'ra sindetik ShKG (subordinatorlar bilan), asindetik ShKG (subordinatorlarsiz) turlari mavjud. Har ikki tilda shart komponent bosh komponentga nisbatan prepozitiv, postpozitiv va interpozitiv o'rinlarda keladi. O'zbek tilida shart komponentga nisbatan bog'lovchi vositalar prepozitiv, interpozitiv, postpozitiv va pre-postpozitiv o'rinlarda joylashadi, biroq ingliz tilida shart komponentga nisbatan bog'lovchi vositalar faqatgina prepozitiv o'rinda keladi.

6. Ishda ShKGlarning funksional-semantik jihatlari asosida quyidagi 10 ta turga tasniflandi: 1) sof shart semantikasini ifodalovchi; 2) sinkretik (qorishiq) semantikani ifodalovchi; 3) real shart semantikasini ifodalovchi; 4) noreal shart semantikasini ifodalovchi; 5) mutlaq qamrovli shart semantikasini ifodalovchi; 6) nomutlaq qamrovli shart semantikasini ifodalovchi; 7) qat'iy shart semantikasini ifodalovchi; 8) noqat'iy shart semantikasini ifodalovchi; 9) ijobiy shart semantikasini ifodalovchi; 10) salbiy shart semantikasini ifodalovchi ShKGlarning.

7. Tahlillarimiz natijasida ShKGlarning komponentlarida qo'llaniladigan mayl turlari o'rtasidagi quyidagi bog'liqliklar aniqlandi:

1) agar ingliz tili ShKGlarning tobe komponenti kesimida aniqlik maylining hozirgi zamon shakli qo'llanilsa, ularning bosh komponenti kesimida aniqlik maylining kelasi zamon shaklidan foydalaniladi;

2) agar ingliz tili ShKGlarning tobe komponenti kesimida aniqlik maylining o'tgan zamon shakli qo'llanilsa, ularning bosh komponenti kesimida shart maylining o'tgan kelasi zamon shakli (should/would+inf) amal qiladi;

3) agar ingliz tili ShKGlarning tobe komponenti kesimida aniqlik maylining o'tgan perfektli zamon shakli qo'llanilsa, ularning bosh komponenti kesimida shart maylining o'tgan perfektli kelasi zamon shakli (should/would+perfect inf.) qo'llaniladi.

O'zbek tilida esa mayllar o'rtasida moslashuvning quyidagi qonuniyatlari aniqlandi:

1) agar ShKGlarning tobe komponenti kesimida shart maylining hozirgi-kelasi zamon shakli qo'llanilsa, ularning bosh komponenti kesimida aniqlik maylining hozirgi-kelasi zamon shakli qo'llaniladi;

2) agar ShKGlarning tobe komponenti kesimida shart maylining hozirgi-kelasi zamon shakli qo'llanilsa, ularning bosh komponenti kesimida aniqlik maylining kelasi zamon (-ar) shakli qo'llaniladi;

3) agar ShKGlarning tobe komponenti kesimida aniqlik maylining o'tgan tugallangan (perfektli) zamon shakli qo'llanilsa, ularning bosh komponenti kesimida o'tgan tugallangan (perfektli) zamon shakli ("gan... sa/da, ... -ar") qo'llaniladi.

8. ShKGLar barcha gaplar – jumlar kabi turli kommunikativ zaruratlar, vaziyatlar va kontekstlarga bo‘lgan ehtiyoj tufayli kommunikativ birliklar maqomiga ega bo‘lib, lingvokulturemalar sifatida kundalik muloqotda quyidagi muhim aktlarni voqelantirishda keng qo‘llaniladi: 1) implikativ (shart) + temporativ (temporative – payt) nutq akti; 2) implikativ shart + suggestiv (suggestive – taklif) nutq akti; 3) implikativ shart + kauzativ (causative – sabab) nutq akti; 4) implikativ shart + regretiv (regretive – afsuslanish) nutq akti; 5) implikativ shart + menasiv (menacive – do‘q-po‘pisa, tahdid) nutq akti; 6) implikativ shart + promisiv (promisive – va‘da) nutq akti; 7) implikativ shart + suppozitiv (suppositive – taxmin) nutq akti; 8) implikativ shart + permissiv (permissive – ruxsat, ijozat) nutq akti; 9) implikativ shart + suppozitiv (suppositive – taxmin) nutq akti va h.k.

9. Ishda ShKGLar lingvokulturemalar sifatida quyidagi muhim lingvokulturologik xususiyatlar bilan tavsiflanishi aniqlandi: 1) ShKGLarda denotativ semantika bilan bir qatorda kulturologik semantikaning ham mavjudligi; 2) ShKGLarning eski va yangi shakllari mavjudligi; 3) ShKGLarning sinonimik, omonimik va antonimik qatorlari mavjudligi; 4) ShKGLarning sof (bir semantikali) va sinkretik (birdan ortiq qorishiq semantikali) turlari mavjudligi; 5) ShKGLarning etnolingvokulturologik xususiyatlari mavjudligi; 6) ShKGLar komponentlari o‘rtasida qo‘llanuvchi ayrim subordinatorlarning boshqa tillardan o‘zlashtirilganligi; 7) ShKGLarning til egalarining ijtimoiy maqomi va til bilimlarining darajasi va undan foydalana olish layoqatiga ko‘ra tanlab, farqlab qo‘llanilishi; 8) ShKGLarning uzual va okkazional turlarining mavjudligi va h.k.

10. Qiyoslanayotgan ikki tilda ShKGLarning izomorfik va allomorfik jihatlari ularning tipologik jihatdan turli tizimli tillarga mansubligi bilan belgilanadi. Xususan, analitik tipdagi ingliz tili ShKGLarida analitik subordinatlar, agglyutinativ tipdagi o‘zbek tili ShKGLarida esa sintetik, analitik hamda analitik-sintetik subordinatlar mavjud. ShKGLarning bunday jihatlari ingliz tilida ularning SVO, o‘zbek tilida esa SOV qoliplari asosida qurilganliklari bilan uzviy bog‘liqdir. ShKGLarning allomorfik jihatlari ularning har bir tildagi struktural xususiyatlari bilan belgilansa, izomorfik jihatlari ularning semantik strukturasing bir xil yoki yaqinligi bilan tushuntiriladi. ShKGLarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda analogik, ekvivalent va parafrasa tarjima usullari keng qo‘llaniladi, bu borada tarjimadagi ayrim yo‘qotishlar va qo‘shilishlar bo‘lishiga qaramay, uzatilayotgan asosiy shart semantikasi saqlab qolinadi.

11. ShKGLarning struktural-semantik, kommunikativ-pragmatik va lingvokulturologik jihatlarni tadqiq qilishda qo‘llanilgan tahlil metodlari qo‘shma gaplarning mavjud boshqa turlari bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazishda keng imkoniyatlar yaratadi, uning materiallari va xulosalaridan darsliklar, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar yaratishda foydalanish mumkin, shuningdek, ushbu ilmiy ishning tadqiqot uslubi, nazariy va amaliy xulosalari mavzuga yaqin bo‘lgan kelgusi ilmiy izlanishlarni amalga oshirishda bevosita xizmat qiladi.

**SCIENTIFIC COUNCIL FOR AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 AT FERGANA STATE UNIVERSITY**

FERGANA STATE UNIVERSITY

UBAYDULLAYEVA DURDONA RAKHMONJON KIZI

**LINGUOCOGNITIVE AND LINGUOCULTUROLOGICAL FEATURES
OF HYPOTAXEMES WITH A CONDITIONAL COMPONENT AND
TRANSLATION PROBLEMS
(on the material of English and Uzbek languages)**

10.00.06 – Comparative literary studies, contrastive linguistics and translation studies

ABSTRACT
of the dissertation of Doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences

The theme of the PhD dissertation is registered by Supreme Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under the number B2020.3.PhD/Fil1374.

The dissertation has been prepared at Fergana State University.

The dissertation abstract in three languages (Uzbek, English and Russian (resume)) has been uploaded on the website (www.fdu.uz) of Fergana State University and on the website of «ZiyoNet» information-educational portal (www.ziyo.net.uz).

Scientific supervisor:

Hoshimov Ganijon Mirzaahmedovich
Doctor of Philology, Professor

Official opponents:

Sadikov Zohid Yakubjanovich
Doctor of Philology, Professor

Raxmonov Ulugbek Bahodirovich
Doctor of Philosophy in Philological Sciences, Associate Professor

Leading organization:

Kokand State Pedagogical Institute

Defense of the dissertation will take place on «24» 04 2025, at 8⁰⁰ at a meeting of Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 under Fergana State University (Address: 105, B.Marghinoniy Str, Fergana, 100151. Tel.: (99873) 244-57-82; e-mail: info@fdu.uz).

The dissertation is available in the Information Resource center of Fergana State University (registered under №494 Address: 19, Murabbiylar Str., Fergana, 100151. Tel.: (99873) 244-44-94.)

The abstract of the dissertation is distributed on «02» 04 2025.
(Mailing report №22 dated «02» 04 2025).



S.M.Muminov
Chairman of Scientific Council on
awarding Scientific degrees,
Doctor of Philology, Professor

M.T.Zokirov
Scientific secretary of the
Scientific Council on awarding
Scientific degrees, Candidate of
Philological Sciences, Professor

A.G.Sabirdinov
Chairman of the Scientific
Seminar at the Scientific Council on
awarding Scientific degrees,
Doctor of Philology, Professor

INTRODUCTION

(Abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD))

The relevance and actuality of the topic. In recent decades, there has been growing interest among scholars in linguistic research worldwide in studying language and cognition, linguistic units and the cognitive structures underlying them as an integrated whole. This trend is directly related to the study of the cognitive aspects of language. In this regard, the emergence of cognitive linguistics has necessitated the systematic explanation and interpretation of the linguistic system, each linguistic unit within it and its multifaceted aspects from a cognitive perspective, inextricably linking them to the human factor – the creator and user of language.

In world linguistics compound sentences, as polytaxemes, including one of their invariant types – hypotaxemes with a conditional component (HCC) – have long attracted the attention of researchers as composite linguistic signs. A crucial feature of any sentence, including composite sentences, is that its structure directly reflects both the static and dynamic aspects of language. This, in turn, indicates the existence of an interaction and systematic interconnection between cognitive semantics and syntax. The essence, structure, semantics and function of HCC in language have been studied to some extent by traditional linguists based on linguocentric principles. However, studying them from the perspective of cognitive linguistics allows researchers to gain a comprehensive understanding of the knowledge structures expressed through composite sentences. Analyzing HCC within a cognitive framework requires identifying the differences between mental and linguistic levels in their structure, as well as the mechanisms of interaction and interconnection between these levels in shaping the cognitive semantics being actualized. From this perspective, a systematic study of the cognitive foundations of HCC formation, resolving their controversial issues, identifying new types, uncovering their linguopragmatic and linguoculturological features in everyday communication and developing practical recommendations based on research findings are of particular relevance.

At present, in the field of linguistics in our independent homeland, significant attention is being given to the systematic study of language based on modern and advanced traditions, particularly to the effective application of research findings in lexicographic, linguodidactic and translation studies. Therefore, conducting research on set communicative expressions that are communicatively significant in modern English and Uzbek languages and are widely used in everyday communication based on linguocognitive, linguopragmatic and linguoculturological approaches, as well as studying their isomorphic, allomorphic and unique features, is one of the pressing issues in our national linguistics, particularly in the field of translation studies. Indeed, addressing these issues plays a crucial role in the consistent and effective implementation of the important tasks outlined by President Sh.M.Mirziyoyev, namely, “coordinating the development of methodologies and recommendations for language learning suitable for all segments of the population in order to introduce an uninterrupted educational chain based on the “kindergarten-school-higher

education institution-enterprise” principle in the field of foreign language teaching,” as well as “creating methodologies for professional translation from the state language into foreign languages and from foreign languages into the state language and assisting in improving the qualifications of specialists in this field”³⁴.

In this regard, this research to some extent contributes to the implementation of the tasks outlined in the normative-legal documents, including the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4947 dated February 7, 2017, “On the Action Strategy for Further Development of the Republic of Uzbekistan”; the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5712 dated April 29, 2019, “On the Approval of the Concept for the Development of the Public Education System of the Republic of Uzbekistan Until 2030”; the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-2909 dated April 20, 2017, “On Measures for the Further Development of the Higher Education System”; the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-3775 dated June 5, 2018, “On Measures to Improve the Quality of Education in Higher Educational Institutions of the Republic of Uzbekistan and Ensure Their Active Participation in the Nationwide Large-Scale Reforms”; the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-576 dated October 29, 2019, “On Science and Scientific Activity”; the Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 610 dated August 11, 2017, “On Measures to Further Improve the Quality of Foreign Language Teaching in Educational Institutions”; the Presidential Address to the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan dated December 20, 2022; and other normative-legal documents.

The compliance of the research with the priorities of the development of science and technology of the republic. This research is done in accordance with the prior direction of the science and technology development in the Republic №1. “Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational improvement of the information society and democratic state”.

The Scope of study of the topic. In global linguistics, a number of concepts and terms related to syntactic level units, including compound sentences and one of their invariant types – hypotaxemes with a conditional component (HCC) – have been established. Various monolingual and polylingual scientific studies of HCC have been conducted on their structure, syntactic status, and functional aspects. Among these, significant research has been carried out by English linguists such as M.Geys, A.Robertson, D.Biber, S.Johansson, J.Leech, S.Conrad, E.Finegan, R.Quirk, S.Grinbaum, I.William and P.Mayes³⁵. Similarly, Russian linguists including N.S.Pospelov, V.V.Vinogradov, G.N.Akimova, B.A.Ilyish,

³⁴O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5117-sonli qarori, 19.05.2021-yil.

³⁵Geis M.L. Adverbial subordinate clause in English. – M.: Massachusetts Institute of Technology, 1970; Robertson A.T. A Grammar of the Greek New Testament in the Light of Historical Research. – Tennessee: Broadman Press, 1934; Biber D., Johansson S., Leech G., Conrad S., Finegan E. Longman grammar of spoken and written English. – London: Longman, 1999; Quirk R., Grinbaum S. A university grammar of English. – Longman, 2004; William E. Conditional Sentences in the New Testament. Doctoral dissertation, Grace Theology Seminary – Gordon College, 1981; Mayes P. Conditionals and Logic of desirability: An interview with Norioko Akatsuka / Issues in Applied Linguistics, 1994. Vol 5, № 2.

V.A.Bogoroditskiy, A.G.Rudnev, A.I.Studneva, L.S.Barkhudarov, N.S.Valgina, D.E.Rozental, M.I.Fomina, M.A.Telenkova, I.B.Golub, L.L.Iofik, M.Y.Blox, Y.G.Birenbaum, A.M.Mukhin, M.I.Cheremisina, T.A.Kolosova, B.S.Khaimovich, B.I.Rogovskaya³⁶ have contributed extensively to this field.

In Uzbek linguistics, significant scientific research in this field has been conducted by linguists such as nalistda A.Gulomov, M.Askarova, G.Abdurahmonov, A.Mamajonov, A.Berdialiyev, R.Sayfullayeva, U.Yusupov, U.Xoshimov, J.Boronov, G.Hoshimov, M.Abduvaliyev, N.Mahmudov, A.Nurmonov, D.Teshaboyev³⁷, etc. These studies have laid the scientific theoretical foundations for the analysis of composite sentences.

The analysis of specialized literature has shown that, firstly, although the structural-semantic types and functional aspects of hypotaxemes with a conditional component have been addressed as the object of certain studies in language in general and in specific languages, their linguocognitive foundations have not been revealed. Moreover, linguistic units that actualize the concept of “condition” in English and Uzbek, including hypotaxemes with a conditional component have not been analyzed within the system of the linguocognitive field. Furthermore, the linguopragmatic, linguoculturological and linguostylistic characteristics of these linguistic units have not been disclosed and their translational and linguodidactic

³⁶Поспелов Н.С. О грамматической природе сложного предложения // Вопросы синтаксиса современного русского языка. – М.: Учпедгиз, 1950; Виноградов В.В. Грамматика русского языка. – М.: Изд-во АН, 1954; Акимова Г.Н. Новое в синтаксисе современного русского языка. – М.: Высшая школа, 1990; Ильиш Б.А. Строй современного английского языка: учебник по курсу теор. грамматики для студ. пед. ин-тов – Изд. 2-е.: Просвещение, 1971; Богородицкий В.А. Общий курс русской грамматики. – М.: Соцэкгиз, 1935; Руднев А.Г. Синтаксис о сложном предложении. – М., 1959; Студнева А.И. Из наблюдений над функционально-семантическими отношениями вводных и вставных предложений // Учен. зап. М.ОП.И. Т. 197, 1967; Бархударов Л.С. Структура простого предложения современного английского языка. – М., 1966; Валгина Н.С., Розентал Д.Э., Фомина М.И. Современный русский язык. – М.: Логос, 2002; Розентал Д.Э., Голуб И.Б., Теленкова М.А. Современный русский язык. 11-е изд. – М., 2010; Иофик Л.Л. Проблема структуры сложного предложения в новоанглийском языке: Автореф. дисс... докт. филол. наук. – Л., 1965; Блох М.Я. Теоретические основы грамматики. – М., 1986; Биренбаум Я.Г. К теории сложного предложения (На материале английского языка) // Вопросы языкознания, 1982; Мухин А.М. Структура предложений и их модели. – Л., 1968; Черемисина М.И., Колосова Т.А. Очерки по теории сложного предложения. – Новосибирск: Наука, 1987; Хаймович Б.С., Роговская Б.И. Теоретическая грамматика английского языка. – М.: Высшая школа, 1967.

